

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI KONSEPTI TAHLILI

Imamberdiyeva Moxigul Xasanovna

Toshkent kimyo xalqaro universiteti talabasi

E-mail: imomberdiyevamohigul@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14710991>

Annotasiya: Mazkur maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanining konseptual asoslari tahlil qilingan. Asarda inson hayoti, oilaviy qadriyatlar, ota obrazi va jamiyatdagi axloqiy-ruhiy muammolar o'rtasidagi bog'liqlik badiiy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ota arxepti, psixologik realizm, ramziy va falsafiy obrazlar, narrativ struktura, adabiy tafakkur.

Konsept - lotincha "conceptus" - (qabul qilish, g'oya) degan ma'noni anglatadi. U muayyan mavzularni yagona tizimga birlashtirishga yordam beradi.

"Ota" romanida asosiy g'oya oilaning jamiyatdagi ahamiyatini ko'rsatishdir. Muallif oila orqali millat va jamiyatning barqarorligini, avlodlar o'rtasidagi uzviylikni yoritib beradi. Bunda muallif zamonaviy davrda inson o'zligini yo'qotmasligi kerakligini urg'ulaydi. Xususan, Ulug'bek Hamdam o'ziga xos adabiy tili, ruhiy holatlarni aniq tasvirlash mahorati va hayotiy voqealarni o'ziga xos badiiy bo'yoqlar bilan tasvirlay olish qobiliyati bilan ajralib turadi. U hayotning oddiy jihatlaridan katta xulosalar chiqaradi va o'quvchini fikrlashga undaydi. "Ota" bu shunday asarki, kitobni ochgan zahoti O'tkir Hoshimov ko'z o'ngimizda bevosita gavdalanadi. Chunki asarning ikki sahifasi "Barcha otalarga bag'ishlanadi" degan izhor bilan boshlanadi. O'tkir Hoshimov dunyoning barcha onalariga atab yozgan qissa kabi sevikli. O'z navbatida, o'zbek adabiyotida yangi davr ijodining yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda inson hayoti, qadriyatlar va milliy an'analar zamonaviy talqini aks ettirilgan. Romanning markazida oila, ota-ona va farzandlar munosabati insoniy burch va milliy qadriyatlar yotadi. Muallif bu asar orqali shaxsning oilaviy munosabatlaridagi o'rni va mas'uliyatini falsafiy darajada tahlil qiladi. Ota obrazi orqali nafaqat oilaning boshlig'i, balki bir butun jamiyatning tayanch nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu roman realistik va falsafiy yo'nalishda yozilgan. Asar o'zbek xalqining hayoti va uning murakkab qadriyatlarini zamonaviy nuqtayi nazardan yoritadi. Ustuvor qismi milliy mentalitet va universal qadriyatlarning uyg'unligiga asoslangan. Shu asnoda, yozuvchining uslubi oddiy voqealarni chuqur tahlil qilib, o'quvchini o'zini va atrofini anglashga undaydi. Romanda voqealar tasviri falsafiy va psixologik tahlillar bilan boyitilgan. Asosiy obrazlar ota, farzandlar va jamiyat. Ota-markaziy qahramon. Bu jamiyat va oiladagi mas'uliyat timsoli hisoblanadi.



Ota obrazida inson burchi, mehr va qattiqqo'llik uyg'un holda tasvirlangan. Farzandlar obrazlari ota-ona va yangi avlod o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib beradi. Jamiyat roman davomida jamiyatning oiladagi bo'lgan ta'siri, milliy an'ana va modernizm o'rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Ushbu romanning asosiy konsepti ota obrazida oila, insoniylik, milliy qadriyatlar va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni falsafiy va badiiy jihatdan tahlil qilishdir. Shu qatorda, arxept sifatida ota faqat biologik ota emas, balki jamiyatning asosiy tayanchi, qadriyatlar va avlodlar o'rtasidagi ko'prik, mas'uliyat va mehr timsoli. Masalan: "Ota o'z qizining qoni bilan yana o'sha o'z qizining sharmanda qilinishidan tushgan dog'ni yuvdi. Ota o'z qizini o'ldirib, har ikkisinin, yo'q-yo'q, butun urug'-aymog'ining, kerak bo'lsa, odamzotning qutlug' nomini saqlab qoldi". [1] O'z navbatida, bu arxept o'zlikni anglash yo'lidagi murakkab jarayonlarni aks ettiradi.

Asosiy narrativ xususiyatlari: Ichki monologlar va refleksiya, ya'ni qahramonlar o'zlarining ichki kurashlari va ichki dunyosini o'quvchi bilan baham ko'radi. Qismlar o'rtasidagi uzviylik va hayotiy voqealar va mushohadalar orqali bir-birini to'ldiradi. Masalan: "Meni kutgil va men qaytarman, faqat kutgil juda intizor, kutgil yomg'ir zeriktirganda, meni kutgil yoqqanida qor"[2]. Real va metaforik voqealar uyg'unligida, hayotiy voqealar orqali falsafiy xulosalar chiqariladi. Roman milliy tafakkur va zamonaviy adabiy yondashuvning uyg'unligidir. Adabiy tafakkurda o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi ziddiyat ko'rinadi, bu esa o'quvchini avlodlar o'rtasidagi aloqalar haqida o'ylashga undaydi. Masalan: "Har kim o'z xulosalariga o'z yo'lidan yuribgina kelishi mumkin ekan. Har birining yo'li bu - har kishining peshonasiga bitilgan bitigi ekan" [3]. Individual onglilik zamondagi har bir qahramonning o'z hayotiga bo'lgan shaxsiy yondashuvi orqali namoyon bo'ladi. Masalan: "Shularni qayta-qayta o'ylarkan - Po'lat otaning yuragi qonga to'lib ketdi, bu dunyoda hech narsa, hech qanday sabab hayotga, odamlarga, ulardan keladigan yaxshiliklarga qaytib ishontirolmas"[4]. Ulug'bek Hamdamning til uslubi va xususiyatlari she'r va proza uyg'unligi, metaforalar va ramziy ifodalar va psixologik tasvir orqali kitobxonni asar dunyosiga yaqinlashtiradi. Masalan: "Shundoq kelbati bilan butun hovlining havosini qochirdi-yu, yana ko'rpachaga cho'zildi"[5]. Roman estetik jihatdan haqiqiy va badiiy uyg'unlikni o'zida mujassamlashtiradi. Estetika o'quvchini jamiyatdagi insonning o'rni, qadriyatlarning zamonaviy dunyodagi o'zgarishi kabi muhim savollar ustida o'ylashga undaydi. Asarda "Endi ota uchun ichki dunyo ham bir edi! Yaxshi ma'nodagi birlik Po'lat ota endi kechagidek o'limga oshiqmaydi, chunki uyda nabirasi - Yodgori bor"[6]. Estetikani keng



miqyosda yoritib, mazmunan kitobxonga dalda bergan. Shu bilan birga, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani adabiyotshunoslar va yozuvchilar tomonidan keng muhokama qilinib, asardagi ota obrazi qahramonlar ruhiyati va milliy qadriyatlarining ifodasi haqida turli fikrlar bildirilgan. Masalan, Miraziz Komilov o‘z maqolasida romandagi ota obrazining ruhiyati, uning oiladagi roli va milliy mentalitetdagi o‘rnini tahlil qilgan[1]. Shuningdek, Dilshod Mo‘minov va Nigora Kiryigitova asarda Po‘lat va Yog‘du obrazlarning ruhiy tahlilini o‘rganib, yozuvchining inson ichki kechinmalarini tasvirlash mahoratini yuksak baholaganlar[2]. Bundan tashqari, Sarvinoz Olimjonova romandagi ona (ayol) obrazini tahlil qilib, ayollarning oiladagi o‘rni va jamiyatdagi mavqeini yoritgan [3]. Umuman olganda, “Ota” romani qahramonning psixologik tahlili, milliylik va oilaviy munosabatlarni chuqur yoritgani uchun adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholanmoqda. Demak, asar milliy an‘analarning zamonaviy dunyo bilan qanday uyg‘unlashishini yoki ziddiyatga kirishishi masalasini ochib beradi. Romanda o‘zlikni anglash jarayoni faqat shaxsiy masala emas, balki ijtimoiy va tarixiy konteksga ega. Bu asar insonning o‘zligini izlash va o‘tmish bilan kelajak o‘rtadagi bog‘liqlikni falsafiy nuqtayi nazardan yoritadi. Ramziy ma’nolar esa imkoniyatning unversallik g‘oyasiga yaqinlashish yo‘lini ko‘rsatadi. Bu o‘zbek adabiyotida falsafiy-ramziy yozuv uslubining yorqin namunasidir. Xususan, tarixiy xotira va milliy o‘zlik mavzulari o‘zbek xalqining jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va kelajagini o‘rganishga yo‘naltirilgan. "Ota" romani nafaqat adabiy, balki sotsiologik tadqiqot uchun ham muhim manbadir. Yozuvchining ramziy va badiiy uslubi o‘zbek adabiyotida yangi paradigmalarni yaratdi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ulug‘bek Hamdam, “Ota” Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2022-yil.
2. Barthes, R. Narrative Theory anda Structure.
3. Tursunov, D. (2019). “O‘zbek adabiyotida oilaviy munosabatlar masalasi: Ulug‘bek Hamdamning yondashuvi”, Adabiyot va San‘at Tadqiqotlari, 5(1), 12-30.
4. Ismatova, 9. (2022). "Sharq falsafasi va zamonaviy nasrda ota obrazining talqini", Ziyonet Tadqiqot Jurnal, 4(3), 18-35.
5. Ziyonet (www.ziyonet.uz) - O‘zbek adabiyoti va Ulug‘bek Hamdam haqida ilmiy maqolalar.
6. Xayitmetov, A. (2015). O‘zbek adabiyoti: An‘analar va zamonaviylik. Toshkent: Sharq nashriyoti.

